



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



DENOV TADBIRKORLIK VA
PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

№ 3040.3.02.2025

2025-y. «29» 06



MATEMATIKA VA INFORMATIKA TA'LIM YO'NALISHI
BAKALAVRIAT TALABALARINING
"BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI BAJARISH VA BAHOLASH
BO'YICHA"
O'QUV DASTURI

Ta'lim yo'nalishi: 60610600 – Matematika va informatika

Denov → 2026

“KELISHILDI”
“Tadbirkorlik va boshqaruv” fakulteti dekani:
M.J. Toshboboyev
2026 y.
FAK “Axborot texnologiyalari”
kafedrasi mudiri
texnika fanlari nomzodi, dots. R.Y. Mamajanov
2026 y.

Tuzuvchilar:

- R.Y. Mamajanov - Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri, t.f.n., dots.
- Sh.I. Xaydarov - Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

- I.M. Boynazarov –TATU Sam.filali, “Kompyuter injiniring” kafedrasi mudiri, t.f.n., professor.
- S.Sh. Ismatov – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar kafedrasi mudiri professori, t.f.d.

Mazkur dastur Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti O'quv-uslubiy kengashining 2026-yil _____ - sonli bayonnamasi bilan ma'qullangan

Kirish

Mazkur o'quv dasturi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “60610600 – Matematika va informatika bakalavr yo'nalishi talabalari uchun bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va rasmiylashtirish haqida bilimga ega bo'lish imkoniyatlarini o'rgatadi. O'quv dasturida bitiruv malakaviy ishini bajarishning maqsad va vazifalari, mavzularini tanlash va tasdiqlash tartibi, bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbarlik qilish, bitiruv malakaviy ishning tarkibi va mazmuni, bajarilishi, rasmiylashtirilishi, himoya qilish kabi masalalarni chuqur o'rnatishdan iborat.

Ushbu o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 9-iyundagi 225-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar” asosida ishlab chiqilgan.

O'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan bitiruv malakaviy ishi talabalarning mustaqil o'quv tadqiqot ishi bo'lib, u ularning o'z yo'nalishlarida olgan nazariy va amaliy bilimlarining yakuniy natijasi hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishini bajarish O'zbekistonda va xorijda chop etilgan ilmiy-texnikaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalardan, me'yoriy-huquqiy hujjatlardan, statistik ma'lumotlardan, internetdan, ilmiy jurnallardan keng foydalanishni talab etiladi.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida talabaniq mustaqil tarzda nazariy va amaliy ma'lumotlarni umumlashtirish hamda tahlil etish, zarur xulosalar chiqarish va shu asosda tanlangan mavzu bo'yicha o'zining tavsiya va takliflarini ishlab chiqish hamda ularni asoslash bo'yicha qobiliyati ochiladi. Bu omil esa bitiruv malakaviy ishning bitirayotgan talabaniq qay darajada bilim olganini va qanday mutaxassis bo'lib yetilganidan dalolat beradi.

1. Bitiruv malakaviy ishini bajarishning maqsad va vazifalari:

Bitiruv malakaviy ishini bajarish – oliy ta'lim muassasalari bakalavriyat ta'limining yakuniy bosqichidir.

Zamonaviy ta'lim sharoitida talabalarning qobiliyati, ong va ko'nikmalarini o'stirish, ilmiy–amaliy bilimlarini chuqurlashtirish va faollashtirish muammosi muhim ahamiyatga ega. Bu xususiyatlar kelajakda talabalar qobiliyatini va qiziqishiga ongli ravishda o'z kasblariga qiziqish va mas'uliyatni oshishiga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishdan maqsad: ta'lim yonalishi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, ta'lim jarayonida olgan nazariy bilimlarni amaliyotda sinab ko'rish, tajriba-laboratoriyaga oid fundamental bilimlarni amalda qo'llay olish, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llash; ijodiy ishlash, muammo yoki masalaniq (muammoning) o'qitilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga yetkazish

bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish; zamonaviy ta'lim, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanish sharoitida talabalarni mustaqil ishlash va qaror qabul qilish hamda ijodiy yondashuvga tayyorgarligini ta'minlash.

Bitiruv malakaviy ishida quyidagi masalalar yechimi ko'rsatilishi lozim:

- tanlangan mavzuning dolzarbligini ilmiy asoslash;
- tadqiqotning maqsadi va vazifalarini aniq ifoda etish;
- tadqiqot obyekti va predmetini aniqlash;
- tadqiqot usuli yoki uslubiyatini tanlash;
- tadqiqot jarayonining tajribaviy qismini atroflicha yoritish;
- tadqiqot natijalarini tahlil qilish;
- xulosalarni izohlash, olingan natijalarga baho berish, amaliy ahamiyatga

loyiq aniq tavsiyalar berish kerak.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy mavzulari kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan maxsus fanlarning dasturiy talablari va xususiyatlari, mamlakat kimyo sanoatidagi islohotlarini yanada chuqurlashtirish jarayonidagi asosiy vazifalarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi hamda talabalarga taqdim etiladi. Bitiruv malakaviy ishning mavzusini tanlashda talaba kafedra tomonidan tayinlangan ilmiy rahbarning maslahatlaridan foydalanadi.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy vazifalari:

- olingan mutaxassislik va biror ixtisos bo'yicha tayyorlash sohasida ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlarda bilimlarni mustahkamlash;
- mustaqil ma'lumotlarni izlash va muayyan muammolar yuzaga kelish maqsadlarida vaziyatlarni o'rganishga bo'lgan bilimlarni egallash;
- bitiruv malakaviy ishda qo'yilgan vazifalarni bajarishda tadqiqot, tajriba-sinov, dasturiy ta'minotni loyihalash va yaratish metodikalarini o'zlashtirganlik darajasini namoyish etish;
- real sharoitlarda talabaning tajriba va sinov ishlariga tayyorgarlik darajasining namoyon bo'lishi;
- mavjud materiallarni tizimlashtirish, tahlil qilish va qayta ishlash va h.k.lardan iborat.

Tanlangan mavzu bo'yicha bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida talaba quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- tanlangan mavzu bo'yicha nazariy bilimlarni chuqur bilishi, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va mavzuni tadqiq etishda zamonaviy analiz usullaridan foydalana bilish;

- tanlangan mavzuni har tomonlama o'rganib chiqish, amaliy ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish hamda shu asosda mavzu obyekti bo'yicha nuqson va kamchiliklarni aniqlab chiqish;

- mavzu bo'yicha obyekt faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiya va takliflarni ishlab chiqish hamda ularni ilmiy asoslab berish.

2. Bitiruv malakaviy ishlar mavzularini tanlash va tasdiqlash tartibi.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, ishlab chiqarish, texnika, ijtimoiy sohalar, fan, ta'lim va madaniyatning istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan belgilanadi va oliy ta'lim muassasasi yoki fakultetning Kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda har o'quv yili boshida qayta ko'rib chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi.

Talabalarga bitiruv malakaviy ishlarining mavzularini tanlash huquqi beriladi.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi va rahbari talabaga birlashtirish kafedraning taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Ish rahbari, bitiruv malakaviy ishning mavzusiga muvofiq talabaga bitiruv malakaviy ishga tegishli materiallarni to'plash bo'yicha topshiriq beradi.

Topshiriqning shakli oliy ta'lim muassasaning o'quv bo'limi monidan belgilanadi. Topshiriq bitiruv malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attestasiya komissiyasiga taqdim etiladi.

Bitiruv malakaviy ish:

- ilmiy tadqiqotning dastlabki ma'lumotlarini tizimlashtirilgan holda saqlashi;
- tanlangan mavzu bo'yicha tadqiqotning bajarilish yo'llari va natijalarini ifodalashi;
- olingan mutaxassislik va biror ixtisos bo'yicha tayyorlash sohasida mustaqil ilmiy-tadqiqot va kompyuter jihozlarining ishlash prinsiplarini o'z ichiga olishi;
- yangi dalillar va faktlar yoki zamonaviy ilmiy nuqtayi nazarlar bilan avvaldan ma'lum bo'lgan shartlar umumlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi;
- munozarali va bahsga sabab bo'lgan xarakterdagi materiallarni qamrab olishi lozim.

Bitiruv malakaviy ish talabaning:

- turli xil nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda kasbiy masalalarning ko'proq maqbul variantlarini tanlashi va mantiqiy fikrlashi;
- mavzuni aniq ifodalashi va uning dolzarblik darajasini baholashi;
- qo'yilgan vazifalarni yechishda tanlangan algoritmlar va dasturiy ta'minotlarning natijalarini analiz qilishi;

- manbalar, adabiyotlar va boshqa Scopus va Web of Sciences materiallari bilan mustaqil ishlashi;

- ularni nazariy tahlil qilishi;

- zarur dalillar, raqamli ma'lumotlarni tanlashi, ularni tahlil qilishi va sharhlashi, shuningdek, ularni jadval yoki boshqa shakllarda namoyish etishi;

- asoslangan xulosalar chiqarishi, ishning ilmiy natijalarini ifodalashi va amaliy tavsiyalar berishi;

- o'z fikrlarini xatosiz, adabiy tilda bayon etishi, ishni to'g'ri rasmiylashtirishi;

- olingan natijalar taqdimotini zamonaviy AKT vositalarini qo'llagan holda o'tkazishi kabi mahorati to'g'risida dalolat berishi lozim.

BMI mavzusini tanlash talaba uchun o'ta muhim hisoblanadi. To'g'ri tanlangan mavzu talabaga 50% dan ziyodga ishni muvaffaqiyatli bajarishga sharoit yaratadi. Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi odatda zamonaviy, ilm va texnikaning dolzarb, kam o'rganilgan masalasiga bag'ishlanadi.

Mavzuni to'g'ri tanlashga quyidagi ishlar yordam beradi:

- bitiruv malakaviy ishlar mavzulari kataloglari bilan tanishish;

- soha bo'yicha ilmiy konferensiya va seminarlar tezislari to'plamlari bilan tanishish;

- soha bo'yicha ilmiy jurnallardagi maqolalar bilan tanishish;

- soha bo'yicha ilmiy adabiyotlar bilan tanishish.

Bu jarayon quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

I bosqich – adabiyotlarni, mundarijani tezkor ko'zdan kechirish va keraklilarini belgilab olish. Maqsad – tezlikda kerakli va qiziqarli materialni topish.

II bosqich – belgilab qo'yilgan maqolalarni chuqur qarab chiqish. Maqsad - zaruriy ma'lumotlarni olish.

3. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbarlik qilish

Bitiruv malakaviy ishlarga rahbarlar ushbu oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilari yoki ilmiy xodimlari, boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanadi.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

- topshiriq beradi;

- bitiruv malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;

- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va monografiya yoki dissertatsiya materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;

- talabalar bilan muntazam ravishda konsultasiyalar o'tkazadi;

- bitiruv malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;

- talaba bajargan bitiruv malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularning qaytarilishiga yoki boshqa manbalardan aynan ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Bitiruv malakaviy ishning bo'limlari bo'yicha maslahatchilar etib, oliy ta'lim muassasasining professorlari va dotsentlari, ilmiy xodimlari hamda boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari tayinlanishi mumkin. Maslahatchilar talaba bajargan ishning muvofiq qismini tekshiradi, tegishli ko'rsatmalar beradi.

Bitiruv malakaviy ish berilgan topshiriq asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladi.

Bitiruv malakaviy ishning har bir bo'limi muvofiq asoslar, qarorlar, va xulosalar bilan yoritiladi. Bitiruv malakaviy ishda, ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma'ruzalar va maqolalari, kurs ishlari va loyihalari, albatda, nomlari ko'rsatilgan holda) ishlari, tahliliy-qiyosiy ma'lumotlar sifatida aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin.

Tushuntirish qismi, zarur bo'lganda, bitiruv malakaviy ishning mazmunini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Zaruriy hollarda tushuntirish qismi-ga grafiklar, rasmlar, diagrammalar, sxemalar, shuningdek, zaruriy qo'shimcha axborot yozilgan elektron shakldagi ma'lumotlar ilova etilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiga uning mavzusi, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda elektron shakldagi taqdimot materiallari kiritilishi mumkin.

Tushuntirish qismi kamida 10-15 ming so'z hajmida belgilanadi.

Kafedraning tavsiyasiga binoan bitiruv malakaviy ish chet tillarining birida bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotasiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima ta'minlanadi.

4. Bitiruv malakaviy ishning tarkibi va mazmuni

Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida malakaviy ishning dolzarbligi asoslanadi, amaliy ahamiyati, ilmiy yangilik yoki muammolik tomonlari aks ettiriladi, tadqiqot predmeti malakaviy ishda ko'rib chiqiladigan muammolar, ishning maqsad va vazifalari belgilab beriladi. Bitiruv malakaviy ishda iloji boricha oxirgi 5 yilda nashr etilgan adabiyotlar, ilmiy ishlardan hamda Internet yangiliklardan foydalanish tavsiya etiladi.

Bitiruv malakaviy ishi ustida ishlayotgan talaba kasb, odob-axloqiy qoidalariga rioya etishi (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, shuningdek yolg'on statistikalar keltirishga yo'l qo'ymaslik) lozim.

Bitiruv malakaviy ishi mustaqil ilmiy tadqiqot ishi bo'lganligi sababli u quyidagi tarkibiy qismlardan tuzilishi zarur:

- bitiruv malakaviy ishining tituli varag'i;

- topshiriq varaqasi;

- mundarija;

- kirish qismi;

- asosiy qism (ilmiy izlanishning nazariy, laboratoriya-tajriba tadqiqotlari natijasi) 2-3 bob yozilishi tavsiya etiladi;

- bob bo'yicha xulosa;
- xulosa va takliflar;
- o'rganilgan va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- ilovalar.

Titul varag'i bitiruv malakaviy ishning birinchi varag'i hisoblanib, belgilangan talablar asosida to'ldiriladi (1-ilova).

Bitiruv malakaviy ishlar hajmi quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

<i>№</i>	<i>Bo'limlarni nomlari</i>	<i>Hajmi</i>
1	Mundarija	1 bet
2	Kirish	4 – 5 bet
3	Asosiy qism (bob va bo'limlar)	40 – 50 bet
4	Xulosa va tavsiyalar	1 – 4 bet
5	Foydalanilgan adabiyotlar	1 – 2 bet

Kirish bitiruv malakaviy ish umumiy hajmining 10-12 foizini tashkil etishi lozim.

Topshiriqning shakli oliy ta'lim muassasaning o'quv bo'limi tomonidan belgilanadi. Topshiriq bitiruv malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attestasiya komissiyasiga taqdim etiladi.

Mundarijada kirish, asosiy qismning boblarining va ularga tegishli paragraflar nomlari, ularning ishda boshlanishi joylashgan betlari va boshqa bo'limlar ko'rsatiladi. Mundarijadagi sarlavhalar bitiruv malakaviy ishning asosiy matnidagi sarlavhalar bilan bir xil bo'lishi shart.

Kirish qismida bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi asoslanadi, amaliy ahamiyati, ilmiy yangilik yoki muammolik tomonlari aks ettiriladi, tadqiqot predmeti, obyekt, malakaviy ishda ko'rib chiqiladigan muammolar, ishning maqsad va vazifalari belgilab beriladi.

Kirish qismida quyidagilar yoritilishi lozim:

- tadqiqot mavzusining dolzarbligi;
- ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari;
- mavzuning o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili;
- tadqiqotning yangiligi;
- tadqiqot predmeti va obyekt;
- tadqiqotning amaliy ahamiyati.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy qismi hisoblash mashinalari, kompyuter tarmoqlari va ularning matematik va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish tajriba

tadqiqoti hisoblanadi. Muammoli tadqiqot ishlarda talabalar chuqur ilmiy izlanishlar olib borib muayyan bir mavzu bo'yicha tajriba sinov ishlarini hal etib beradilar.

Asosiy qism boblarining soni va mazmuni ish turiga qarab belgilanadi. Kompyuter injiniringi ta'limi yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan bitiruv malakaviy ish uch bobdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Odatda, birinchi bobda tadqiqot olib borilgan obyekt bo'yicha qisqacha ma'lumot berish bilan birga mavzuning umumiy nazariy masalalari bo'yicha mazkur tadqiqot natijalarining amaliyotda tadbir etilishi mumkin bo'lgan muassasaning qisqacha tavsifnomasi berilishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy qismida tadqiqot uchun tanlangan mavzuning nazariy jihatlarini yorituvchi bob va bo'limlardan tashkil topishi, tadqiqot metodi va laboratoriya-tajriba sinov ishlari, ishni bajarishda kerak bo'lgan asbob-uskunalar, kutiladigan natijalarning bayon etilishi, xulosalarning shakllantirilishi va amaliy tavsiyalar berilishi lozim.

Asosiy qismni tashkil etuvchi bob va bo'limlarning mazmuni bitiruv malakaviy ish mavzuiga to'liq mos kelishi va uni to'la ochib berishi darkor. Bob va bo'limlar talabaning qisqa, mantiqan to'g'ri va dalillar keltirib to'plagan, tizimlashtirgan hamda tahlil qilgan materiallarini bayon etish qobiliyatini namoyish etishi lozim. Mazkur ko'rsatmada bob va paragraflar o'zaro mantiqiy izchillikda beriladi.

Bitiruv malakaviy ish yakunida bugungi kunda davlat va jamiyat talablari asosida zamonaviy axborot texnologiyalari uchun axborotlarni himoyalashning takomillashtirilgan variantlarini tavsiya etishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishda tahlil va asoslash uchun baza sifatida qo'llaniluvchi materiallar va zamonaviy texnik vositalar va matematik apparatlar yetarli darajada to'liq va ishonchli bo'lishi lozim. Chunki bularga tayangan holda ish holatini tahlil qilish, algoritmi tahlil qilish va ulardan foydalanish yo'llarini belgilash, shuningdek, ishdagi yashirin kamchiliklarni bartaraf etish mumkin bo'lsin. To'plangan material hajmi va tavsifi qabul qilingan tadqiqot metodikasining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq.

Bitiruv malakaviy ishning bajarilishida texnik vositalarning ta'minlanishi u yoki bu ko'rsatkichlarni hisoblash, vaziyatlarni modellashtirish, loyihani rasmiylashtirish, taqdimot materiallarini DAK oldida himoya qilishga tayyorlash uchun maxsus kompyuter va mos keluvchi dasturiy ta'minotdan foydalanishni talab etadi.

Xulosa va takliflar qismida ish mazmuni bo'yicha ishlab chiqilgan xulosalar va aniq takliflar, erishilgan natijalar mujassamlashtiriladi. Malakaviy ish ayrim

boblardagi xulosalar va takliflar bilan ham tugallanishi mumkin, ammo undan eng muhimlari ishning oxirida, ya'ni xulosa bo'limida aks ettirilishi kerak.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar talaba tomonidan bitiruv malakaviy ishni tayyorlash va yozish jarayonida qo'llanilgan manba va adabiyotlarni o'z ichiga oladi va u tadqiqot mavzuga bog'liq tarzda 25-30 (va undan ko'p) nomdan tashkil topadi. Manbalar haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim Davlat ta'lim standartlari talablariga mos tarzda keltiriladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlarning tanqidiy tahlilini tuzishda qo'yilgan muammoni o'rganish uchun ular nimani berishligini aniqlash, shuningdek, ularning muallifi qanday manbalarga tayanganliklariga e'tibor qaratish lozim. Buning uchun foydalanilgan manba va adabiyotlarning tanqidiy tahlili sifatida oddiy keltirilgan me'yoriy-huquqiy dalolatnomalar, ularning mualliflari va ishlarini almashtirish mumkin emasligini unutmaslik lozim.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar tahlili mavzuiy yoki ko'rgazmali tamoyil bo'yicha tuzilishi, talabning (ya'ni, uning o'qigan materiallariga shaxsiy munosabati) bahosini o'z ichiga olishi, muammoning qayta ishlanganlik darajasini ko'rsatishi, to'liq o'rganilmagan masalalarni aniqlashi lozim.

Bunda bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida qo'llanilgan barcha qonun chiqaruvchi va me'yoriy-huquqiy materiallar, ilmiy, o'quv va davriy nashrlar to'liq bibliografik tavsifi (nashr joyi, nashriyot nomi, chop etilish yili yoki nashri)ni o'z ichiga olishi lozim. Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatini tuzish jarayonida nashr qilingan va chop etilmagan ishlar ajratilgan bo'lishi kerak.

Ishning ilova qismida bitiruv malakaviy ish asosiy mazmunini qo'shimcha to'ldiruvchi va ko'rgazmali tasvirlovchi barcha materiallar keltiriladi. Bunda, asosan dasturiy kodlar, chizma, jadval, diagramma, gistogramma, rasm, surat va fotohujjatlar, shuningdek, har xil turdagi matnlar, tashkiliy-huquqiy hujjatlar, ma'lumotnomalar, e'lonlar joylashtiriladi.

5. Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi

Bitiruv malakaviy ish oliy ta'lim muassasasining, odatda, ushbu maqsadda maxsus ajratilgan xonalarda bajariladi. Ayrim hollarda, bitiruv malakaviy ish korxonalar, muassasalar, ilmiy, loyihalash va boshqa muassasalarda bajarilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabning hisobot berish muddatlarini dekanat nazorat etadi. Dekanat belgilagan muddatlarda, talaba bitiruv malakaviy ishining bajarilish holati haqida rahbar va kafedra mudiri oldida hisobot beradi. Kafedra mudiri bitiruv malakaviy ishning tayyorlik darajasini belgilaydi.

Shu maqsadda kafedrada har bir bitiruvchi kesimida bitiruv malakaviy ishlarining bajarilish monitoringi tashkil etilib, uning bajarilish holati rahbarning haftalik hisobotlari asosida foizlarda aniqlab boriladi.

Talaba – ish muallifi, tanlangan qarorning to'g'riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, bitiruv malakaviy ishda ko'chirmachilik holatini yo'qligiga javob beradi.

Bitiruv malakaviy ishlarni bajarish bosqichlarida belgilangan muddatlardan kechikish hollari aniqlanganda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar kafedra mudiri tomonidan belgilanadi.

6. Bitiruv malakaviy ishning rasmiylashtirilishi

Bitiruv malakaviy ish bitta nusxada tayyorlangan va kolenkor (qalin surpli) muqovada tikilgan bo'lishi lozim. Bitiruv malakaviy ish matni o'qib chiqilgan va tahrir etilgan bo'lishi darkor.

Bitiruv malakaviy ish kompyuterda bajarilishi mumkin. Kompyuterda tayyorlangan ishning umumiy hajmi 45-60 betdan iborat bo'lishi kerak. Ilovalar uning umumiy hajmiga kirmaydi.

Bitiruv malakaviy ish A4 formatdagi qog'ozning bir tomoniga rasmiylashtirilishi shart. Matn 1,5 intervalda Times New Roman № 14 shriftida bajarish maqsadga muvofiqdir. Malakaviy ish A4 shaklidagi qog'ozning chap tomonidan 3,0 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2,5 sm dan kam bo'lmagan hoshiya qoldirilgan holda terilishi talab etiladi.

Dastlabki himoyada talaba bitiruv malakaviy ishni to'liq (biroq muqovalanishi shart emas) varianti hamda o'zining ilmiy-izlanish va amaliy faoliyatining ko'rgazmali natijalari va ma'ruzalari ilova qilingan qo'shimcha materiallarni taqdim etadi.

Bitiruv malakaviy ishning dastlabki himoyasi o'tkazilgandan so'ng hamda DAK kotibasining taqrizidan keyin himoyaga 3 kun qolganda quyidagilar taqdim etilishi lozim:

- 1) malakaviy ish kafedra mudiri, ilmiy rahbar, ilmiy maslahatchilar tomonidan tasdiqlangan, muqovalangan nusxasi;
- 2) malakaviy ish hamda uning taqdimot materiallari agar kompyuterda yozilgan bo'lsa, ularning elektron versiyasi tushirilgan disketa;
- 3) bitiruv malakaviy ishga yozilgan ilmiy rahbar yakuniy mulohazasi;
- 4) tashqi taqriz;
- 5) malakaviy ishga taalluqli bo'lgan boshqa hujjatlar.

Ilmiy rahbar yozma mulohazasida bitiruv malakaviy ish to'g'risidagi fikrlarini bayon etadi. Mazkur mulohaza erkin shaklda yoziladi, biroq ayrim umumiy qoidalarga ham rioya qilinishi kerak.

Rahbar mulohazasida quyidagilar yoritiladi:

- bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi;
- bitiruv malakaviy ish mavzusining ishlab chiqarish bilan bog'langanlik darajasi;

- bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari muallif tomonidan qay darajada yoritilganligi;
- tajriba-sinov ishlari bajarilganligi, tadqiqotning ilmiy jihatdan yangiligi;
- o'tkazilgan tadqiqot natijalarining asoslanganligi;
- tadqiqotchining ilmiy tahlil qila olish qobiliyatini qisqacha ta'riflash;
- talaba xulosalari va takliflarining sifatiga baho berish.

Ilmiy rahbarning yozma mulohazasi mavzur bitiruv malakaviy ishni bakalavriat bosqichini bitirishga qo'yilgan talabalar darajasiga mos bajarilganligini ko'rsatish bilan yakunlanadi.

Ilmiy rahbardan ijobiy taqriz olingandan so'ng, talaba tayyor bo'lgan bitiruv malakaviy ishni bir hafta ichida fakultet dekani tomonidan daylat attestasiyasi uchun belgilangan opponenddan taqriz olish uchun taqdim etishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishga obyektiv olish maqsadida unga muvofiq keluvchi tashkilot boshqarmasining yuqori ilmiy-amaliy salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislarining taqrizlari muhimdir. Har bir bitiruv malakaviy ish bo'yicha kafedra yig'ilishi qaroriga muvofiq taqrizchi belgilanadi.

Taqrizchi – oliy ta'lim muassasalarining boshqa kafedralari professor-o'qituvchilari, yoki muayyan bitiruv malakaviy ishda ko'tarilgan muammo bo'yicha yetakchi ilmiy va amaliy faoliyat olib boruvchi boshqa muassasa, tashkilot va korxonada mutaxassislari tarkibidan bo'lishi mumkin.

Taqrizda talaba tomonidan tanlangan mavzuning dolzarbligiga baho berilishi, unda qo'yilgan maqsad va ifodalangan vazifalarga bitiruv malakaviy ish mazmunining mosligi, uning asosiy qiymatini belgilovchi, amaliy ahamiyati va olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi, shuningdek, ishda yul qo'yilgan asosiy kamchilik berilgan bo'lishi lozim. Bitiruv malakaviy ishning kasbiy tayyorgarlik darajasini yakuniy baholash uning me'yoriy hujjat talablariga mosligi va opponentning himoya qilishga ruxsati haqidagi xulosasi hisoblanadi. Taqrizchi bitiruv malakaviy ishning mazmuni va rasmiylashtirilishi bo'yicha talaba mehnati natijalariga nafaqat sifat, balki miqdor (ballarda) baho berishi zarur.

Taqrizda quyidagilar aks ettiriladi (ilovaga qarang):

- mavzuning dolzarbligini;
- tadqiqot maqsadi;
- tadqiqotning ilmiy jihatdan yangiligi;
- tadqiqotning amaliy ahamiyati;
- ishning tuzilishi va tarkibi;
- tadqiqotning mazmuni hamda tugallanganlik darajasi;
- ma'lumotlar va matnning bayon etish tili hamda uslubi;
- bitiruv malakaviy ishga qo'yiladigan talab va mutaxassislikka mosligini aks ettirish zarur.

Taqriz taqrizga taqrizchining shaxsiy imzosi qo'yiladi, berilgan sana va ro'yxatga olinganlik raqami ko'rsatiladi. Taqrizchi imzosi u ishlaydigan tashkilot tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi shart.

Ilmiy rahbar mulohazasi va taqriz bilan talab darajasida rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ish kafedraga topshiriladi.

Bitiruv malakaviy ko'pincha mazmuniga ko'ra matndan tashqarida joylashgan jadvallar, ko'rgazmali ma'lumotlar, chizmalar, formulalarga olingan manbasini berishga to'g'ri keladi. Matndagi keltirilgan rasmlar, jadvallar, betlar, boblarda tartib raqamining belgisiz («№»), ya'ni 5-chizma, 6-jadval, 13-bet yoki III bob shaklida yozish talab etiladi.

Izohlar (snoski) sahifaning eng pastki qismiga chiziq tortib, satr boshidan yoziladi. Izohlar har bir sahifada alohida tartib raqami bilan ko'rsatiladi. Keyingi betda izohlar yangi tartib raqami bilan beriladi. Izohning matndagi raqam belgisi agar izoh ayrim so'zgaгина taalluqli bo'lsa, bevosita shu so'zdan keyingi, agar butun gapga tegishli bo'lsa, gap oxirida ko'rsatiladi.

Bitiruv malakaviy ish matnida ko'p hollarda boshqa tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan dalillarni berishga yoki ulardan ba'zi ma'lumotlarni o'zlashtirishga to'g'ri keladi. Agar olingan manba ko'rsatilmasa, ko'chirmakashlik hisoblanadi. Shuning uchun olingan ma'lumotlarning manbai, albatta, ko'rsatilishi shart.

7. Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ish (kompyuterda bajarilgan holda uning elektron varianti bilan birga) talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, bitiruv malakaviy ish talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va bitiruv malakaviy ishning boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Kafedra mudiri, taqdim etilgan materiallar asosida, bitiruv malakaviy ishni talaba tomonidan Yakuniy davlat attestasiya komissiyasida himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi.

Agar, kafedra mudiri talabning bitiruv malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama etiladi. Kafedra majlisining bayonnomasi fakultet dekani tomonidan tasdiq uchun rektorga taqdim etiladi. Himoyaga kiritilgan bitiruv malakaviy ish taqrizga yuboriladi. Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilarga ish beruvchi soha mutaxassislari safidan tanlanadi. Taqrizchilar sifatida boshqa oliy ta'lim muassasasining professor va o'qituvchilar ham jalb etilishi mumkin.

Fakultet dekani malakaviy ishni taqriz bilan himoya uchun Yakuniy davlat attestasiya komissiyasiga taqdim etadi.

Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishlar himoyasi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida taqdimot shaklida tashkil etiladi va o'tkaziladi. Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi, mazmun-mohiyati va xususiyatlariga muvofiq ularning himoyasini tashkil etish va o'tkazishning boshqa shakllari oliy ta'lim muassasasi Kengashi tomonidan o'rnatilishi mumkin.

Arxiv, axborot-resurs markazi va kafedralarda saqlanayotgan yoki internet resurslaridan foydalanib aynan ko'chirib olinganligi rasmiy himoyagacha aniqlanib tasdiq'ini topgan bitiruv malakaviy ishlari kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinadi va bitiruvchiga qoniqarsiz baho qo'yilib, ish rahbari keyingi uch yil davomida bitiruv malakaviy ishlarga rahbar etib tayinlanmaydi.

Oliy ta'lim muassasasida axborot texnologiyalari vositasida taqdimot shaklida bitiruv malakaviy ishlar himoyasini tashkil etish uchun yetarli darajada maxsus jihozlangan auditoriyalar belgilanadi.

Taqdimotni tayyorlash jarayonida Microsoft PowerPoint da ko'rsatilayotgan ma'lumotlar bitiruv malakaviy ishini mazmuni va mohiyatini, natijalari, xulosalarini, takliflarini aks ettirishi lozim.

Taqdimot quyidagi tavsiflarga ega bo'lishi kerak:

- slaydlar soni (7-10 ta);
- slaydlarning mazmuniy o'lchamlari;
- birinchi slayd bitiruv malakaviy ishning mavzusi, obyekti, bajaruvchi talaba. Ilmiy rahbar va ish bajarilgan kafedra hamda oliy o'quv yurti to'g'risida ma'lumot berishi zarur;
- oxirgi slayd ma'lumotlar manbalari tavsifiga bag'ishlangan;
- qolgan slaydlar loyiha mazmunini erkin shaklda ifodalaydi.

Slaydlar avtoko'rinish tartibida yoki sichqoncha yordamida namoyish etiladi.

Bitiruv malakaviy ish himoyasidan so'ng (kamida 10 yil) oliy ta'lim muassasasida saqlanadi. Har xil sabablar bo'yicha bitiruv malakaviy ishni boshqa tashkilot yoki xodimlarga topshirish zaruriyati mavjud bo'lgan holda (tadqiq etish, talovlar va hokazo), ishdan nusxa olinadi va ularni mazkur nusxa beriladi, ishning asl nusxasi oliy ta'lim muassasasida qoldiriladi.

8. Bitiruv malakaviy ishni baholash mezonlari

Bitiruv malakaviy ishni asosiy baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

- mavzuning dolzarbligi va yangiligi, uni ishlab chiqishning murakkabligi;
- ko'rilayotgan masala bo'yicha mahalliy va xorijiy manba va maxsus adabiyotlardan to'la foylanilganligi;

- tadqiqot obyekti bo'yicha daliliy ma'lumotlarni to'liq va sifatli to'planganligi;

- qo'yilgan masalani hal qilishda metod va asbob-uskunalaridan foydalanishning tasdiqlanganligi;

- Tajriba-sinov ishlarini olib borganligi, olingan natijalarni zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanib tahlil qila olganligi;

- xulosa, taklif, tavsiyalarining ilmiy, uslubiy va amaliy ahamiyati hamda ularni isbotlanganlik darajasi va real tadqiq etish imkoniyatlari;

- materialni aniq va to'g'ri, xatosiz bayon etilganligi, ishni sifatli rasmiylashtirilganligi, mazkur uslubiy ko'rsatma talablari hisobga olinganligi;

- bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy masalalar bo'yicha munozara yurita olinganligi, DAK a'zolarining savollari va taqrizchilar kamchiliklariga berilgan javoblarning to'g'ri va chuqur ifodalanganligi.

Agar ish mavzui ilmiy asoslanib, o'zida nazariy, uslubiy yoki amaliy qiziqishni uyg'ota olsa, qo'yilgan masalani hal qilishda muallif tomonidan maqbul tahlil qilish usullari, zamonaviy metod va vositalarni qo'llash mumkinligi tasdiqlansa, shuningdek, u axborot xavfsizligi sohasidagi ilmiy-nazariy, uslubiy yoki amaliy masalalariga yordam bersagina, bitiruv malakaviy ish «a'lo» bahoga loyiq deb topiladi. «A'lo» baholangan ishning tarkibiy tuzilishi aniq, mantiqan to'g'ri va qo'yilgan maqsadga muvofiq bo'lishi lozim. Xulosa qismida aniq, qo'yilgan masalani hal qilishda hissa qo'shadigan har tomonlama asoslangan xulosalar keltirilishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishlarni baholash

MEZONI

№	Mezonlar mazmuni	Ball
1	Malakaviy bitiruv ishining mavzusini dolzarbligi	10
2	Malakaviy bitiruv ish mundarijasining talab darajasida tuzilganligi	10
3	Malakaviy bitiruv ishning ilmiy jihatdan shakllantirilganligi	10
4	Malakaviy bitiruv ishda adabiyotlardan foydalanish holati, Malakaviy bitiruv ishda boblarni yoritilishi	10
5	Laboratoriya-tajriba ishlarini bajarganlik holati va olingan natijalarning tahlil holati	10
6	Talabning ilmiy jurnalda maqola yoki konferentsiyalarida malakaviy bitiruv ishi mavzusi bo'yicha maqola tezislarni chop etish	10
7	Malakaviy bitiruv ishning himoyaga tayyorligi	10

	(ko'rgazmali vositalarni tayyorlanganligi, axborot vositalardan foydalanish).	
8	Xulosa va tavsiyalarning asoslanganligi	10
9	Malakaviy bitiruv ishni yoritishda talabning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuvi	10
10	Malakaviy bitiruv ishni Oliy ta'lim talablariga muvofiq rasmiylashtirilganligi.	10
	Jami	100

Talabning bilim darajasini baholash

Ball	Baho	Talabning bilim darajasi
90 - 100	A'lo	Bitiruv malakaviy ishining mavzusining dolzarbligini asoslab bergan, ilmiy jihatdan to'g'ri shakllantirilgan, ijodiy yondosha olgan, laboratoriya-tajriba ishlarini mustaqil bajargan, himoyada axborot vositalaridan foydalandi, bitiruv ishining xulosasi va tavsiyalar asoslangan, mavzuga doir adabiyotlardan o'rinli foydalangan, ishni yozishda chet elda nashr etilgan adabiyotlardan, internet ma'lumotlaridan foydalangan, mavzu bo'yicha ilmiy maqola yoki tezis chop etgan, bitiruv malakaviy ishining rasmiylashtirilishi talab darajasida.
70 - 89	yaxshi	Bitiruv malakaviy ishining mavzusining dolzarbligini asoslab bergan, ilmiy jihatdan to'g'ri shakllantirilgan, mavzuga doir adabiyotlardan o'rinli foydalangan, laboratoriya-tajriba ishlarini bajargan, bitiruv ishining xulosasi va tavsiyalar asoslangan, muhokamada barcha savollarga javob bera oldi
60 - 69	qoniqarli	Bitiruv malakaviy ishining mavzusining dolzarbligini asoslab bergan, ilmiy jihatdan to'g'ri shakllantirilgan, laboratoriya-tajriba ishlarini olib borgan, bitiruv ishining xulosasi va tavsiyalar asoslangan, adabiyotlardan foydalanish talab darajasiga emas.
0 - 59	qoniqarsiz	Bitiruv malakaviy ishining mavzusining dolzarbligini yetarlicha asoslab bermagan, laboratoriya-tajriba ishlarini bajarmagan, ilmiy jihatdan kamchiliklar mavjud, xulosasi talab darajasida emas, muhokamada savollarga javob bera olmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 9 iyundagi 225-sonli buyrug'i.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrda "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi NIZOm hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 23-dekabrda 472-son buyrug'iga asosan ishlab chiqilgan.

INTERNET SAYTLARI:

- O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. URL: <http://www.gov.uz/>
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami, 2017y., 6-son, 70-modda.
- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. URL: <http://www.edu.uz/>
- Ta'lim portali. URL: <http://www.ziyonet.uz/>
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <http://www.lex.uz/>
- O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi. URL: <http://www.ima.uz/>
- Termiz davlat universiteti. URL: <http://www.tersu.uz/>
- Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti. URL: <http://www.nuu.uz/>

Ilovalar

1-ilova

A-4 o'lchamli yozuv qog'ozida bitiruv malakaviy ishini yozish

TARTIBI:

Bitiruv malakaviy ishi betlari quyidagicha yozilishi lozim:

- chap tomondan - 30 mm;
- yuqoridan - 25 mm;
- o'ng tomondan - 15 mm;
- pastdan - 25 mm.

Har bir qatorga 65-70 tadan harf yoziladi. Jami 28-29 qator bo'ladi.

2-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**TADBIRKORLIK VA BOSHQARUV FAKULTETI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani

dots. M.J. Toshboboyev

“ ” 2026 yil

60610600 – Matematika va informatika bakalavriat ta'lim
yo'nalishi 4-bosqich talabasi

_____ning

_____mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Axborot texnologiyalar kafedrası
mudiri:

R.Y.Mamajanov

“ ” 2026 yil

Denov-2026

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

AXBOROT TEXNOLOGIYALAR KAFEDRASI

**BITIRUV MALAKAVIY ISHGA
HISOBLASH – TUSHUNTIRISH XATI**

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi _____

Bitiruv-malakaviy ish tarkibi:

Hisoblash-tushuntirish xati _____ bet
Grafik qismi _____ ta varaqdan iborat

Talaba _____ guruxi _____

Rahbar _____

Taqrizchi _____

M a s l a h a t c h i l a r

Tashkil qilish va iqtisodiy

qismlari bo'yicha _____

Boshqa bo'limlar bo'yicha _____

Kafedra mudiri _____

Denov – 20__y

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

_____ fakulteti _____ kafedra
Yo'nalish(mutaxassislik) _____

«TASDIQLAYMAN»

Kafedra mudiri _____

«__» _____

**Bitiruv malakaviy ishiga
TOPSHIRIQ**

Talaba _____
(Familiyasi, ismi, otasining ismi)

- Ish mavzusi _____
- _____ bo'yicha ___ yil «__» _____ kuni
№ _____ buyrug'i bilan tasdiqlangan
- Ishni himoyaga topshirish muddati _____
- Ishga oid dastlabki ma'lumotlar _____
- Hisoblash tushuntirish yozuvlarining mazmuni _____
- Kerakli materiallar ro'yxati _____
- Topshiriq berilgan sana _____ «__» _____ 20__ y

Rahbar _____
(imzo)

Topshiriqni oldim _____
(imzo)

MUNDARIJA

Kirish
1. Bitiruv malakaviy ishni bajarishning maqsad va vazifalari	3
2. Bitiruv malakaviy ishlar mavzularini tanlash va tasdiqlash tartibi	5
3. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbarlik qilish	6
4. Bitiruv malakaviy ishning tarkibi va mazmuni	7
5. Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi	10
6. Bitiruv malakaviy ishning rasmiylashtirilishi	11
7. Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish	13
8. Bitiruv malakaviy ishni baholash mezonlari	14
Foydalanilgan adabiyotlar	17
Ilovalar	18